



## XALQ DEPUTATLARI QO'SHTEPA TUMAN KENGASHINING QARORI

2024 - yil 9 - fevral

VI-64-12-11-157-K/24

Qo'shtepa tuman hokimligi

### **Tashabbusli byudjet jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risida**

Aholini tashabbusli byudjet jarayoniga keng jalb qilishni yanada kuchaytirish, byudjet mablag'larining bir qismini jamoatchilik fikri asosida yo'naltirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni izchil davom ettirish, shuningdek, o'tgan davr mobaynida orttirilgan tajribani inobatga olgan holda mazkur tizimni yanada takomillashtirish maqsadida xalq deputatlari Qo'shtepa tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatini Kengashining 2024-yil 30-yanvar kuni "Tashabbusli byudjet jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi KQ-666-IV-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Senat qarori bilan tasdiqlangan nizomning 2-ilovasiga muvofiq, Jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo'yicha ishchi komissiya tarkibi tasdiqlansin.

3. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Xalq deputatlari Qo'shtepa tuman Kengashining 2022-yil 7-fevraldagigi "Qo'shtepa tumani Mahalliy byudjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi VI-51-25-11-157-K/22-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining tegishli doimiy komissiyalari raislari zimmasiga yuklatilsin.

**Sessiya raisi**



**Sh.Sharapov**

Xalq deputatlari Qo'shtepa  
tuman Kengashining  
2024-yil 9-fevraldagi  
VI-64-12-11-157-K/24-son  
qaroriga  
1-ilova

**Jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish  
hamda ijrosini monitoring qilish bo'yicha ishchi komissiyaning  
TARKIBI**

| <b>T/r</b> | <b>F.I.O.</b>                         | <b>Ish joyi va lavozimi *</b>  |
|------------|---------------------------------------|--|
| 1.         | Lavozimiga ko'ra                      | Xalq deputatlari Qo'shtepa tuman Kengashi raisi, ishchi komissiya rahbari  |
| 2.         | Nuriddinov Saidolim Sobidxonovich     | Xalq deputatlari Qo'shtepa tuman Kengashi deputati   |
| 3.         | Tavakalov Abduvoxob Axmadjon o'g'li   | Xalq deputatlari Qo'shtepa tuman Kengashi deputati   |
| 4.         | Mamasiddiqov To'lqin Murodovich       | Farg'ona viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshliq o'rinbosari   |
| 5.         | Qurbonov Bahromjon Maxammadsoliyevich | Tuman hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari  |
| 6.         | Usmonov Alisher G'aniyevich           | Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi boshlig'i   |
| 7.         | Akbarov Ibroximjon Tulqinovich        | Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i  |
| 8.         | G'aniyev Abdujabbor Allom o'g'li      | Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limining Mahallalar va ochiq budget masalalari bo'yicha bosh mutaxassisi (Ishchi organ) |
| 9.         | Lavozimiga ko'ra                      | Tuman adliya bo'limi vakili  |
| 10.        | Yo'ldashev Siddiqjon Rahimovich       | Tuman Nuroniylar jamg'armasi Qo'shtepa tuman bo'limi raisi   |
| 11.        | Xamroliev Xatamali Usmonovich         | O'zbekiston Mahallari uyushmasining Qo'shtepa tumani bo'limi rahbari   |
| 12.        | Azimov Sardorbek Sodiqovich           | Tuman Qurilish bo'limi boshlig'i, bosh arxitektur  |
| 13.        | Ro'ziboyev Ma'rufjon Madaminovich     | Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i   |
| 14.        | Rahimov Davronbek Ilhomovich          | "Hududgaz Farg'ona gaz ta'minoti" filiali Qo'shtepa tumangaz bo'limi boshlig'i   |
| 15.        | Yusupov Alibek Akramjonovich          | Tuman Elektr ta'minoti korxonasi boshlig'i   |
| 16.        | Qalandarov Lutfullo Tolipovich        | "Farg'ona suv ta'minoti" aksionerlik jamiyati Qo'shtepa tumani filiali rahbari   |
| 17.        | Tursunov Komiljon Obidovich           | Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi rahbari  |
| 18.        | Murodov Oybek Axmadjonov              | Tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i   |

|     |   |  |
|-----|---|--|
| 19. | Ulug‘bek Abdullaxojiev<br>Abduvali o‘g‘li | Davlat kadastrlar palatasi Qo‘sh tepa tuman filiali<br>rahbari |
|-----|---|--|